

**Murojaatlar bilan ishlash bo'limi hafta davomida 593 nafar fuqaro  
bilan telemuloqot o'tkazdi**

Murojaatlar bo'limi xodimlari 18-22 sentyabr kunlari *Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazida, Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazida, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida, Bolalar milliy tibbiyot markazida, Orolbo'yi mintaqasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, Farg'ona viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filiali, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida, Qashqadaryo viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida, Navoiy viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Toshkent viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Namangan viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, INTER KAXRAMON YORQINOY, ABU BAKR AR ROZIY MED SERVIS, ERAMED, IMPULS KLINIK, AKFA MEDLINE, AMERICAN HOSPITAL nodavlat tibbiyot muassasalarida* imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **370 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqatlar o'tkazdilar.

Bo'lim xodimlari tomonidan o'tkazilgan telemuloqatlar natijasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **29(7,8%) nafar** fuqarolar *shifokorlar qarovi va davolash sifatidan, dori vositalari uchun o'z hisobidan pul mablag'alari*

**sarflaganligi, oziq-ovqat sifati** yuzasidan e'tirozlarini bildirgan bo'lsada e'tirozlari yuzasidan Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdilar.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon (**99 353 93 54, 94 353 93 54**) lariga **223 nafar** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan **"sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og'zaki e'tirozli murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **ishonch telefonlariga va Jamg'arma manziliga** hafta davomida fuqarolardan **7(3,1%)ta og'zaki e'tirozli murojaatlar** bo'ldi.

#### **Shulardan:**

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani, Surxondaryo viloyati Termiz shahri va Sho'rchi tumanlarida yashovchi fuqarolarning farzandlari va nabirasi imtiyozli yo'llanma bilan **Bolalar milliy tibbiyot markazida davolanish davrida shifokorlar qarovidan, o'z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi**, Toshkent shahar Yashnobod tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan farzandlari **Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolanish davrida davolanish sifatidan**, Jizzax viloyati Zomin tumanida yashovchi fuqaro farzandi uchun **nodavlat tibbiyot muassasasiga imtiyozli yo'llanma olishda muammolarga uchrayotganligi yuzasidan Jamg'arma ishonch telefoniga telefon qilib o'zlarining e'tirozli og'zaki murojaatlarini bildirgan bo'lsa**, Toshkent shahar Uchtepa tumani va Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanida yashovchi fuqarolar imtiyozli **yo'llanma olish tartibi, imtiyozli yo'llanmani manzilini o'zgartirish hamda moddiy yordam so'rab tashkilot manziliga og'zaki murojaat qilib keldi.**

**Yuqoridagi holatlar bo'yicha Jamg'armaning xududiy bo'linma va bosh mutaxassislariga hamda tibbiyot muassasa rahbariyatiga fuqarolarning**

*ma'lumotlari telefon orqali berildi, fuqarolar murojaatlari bo'yicha qaysi tashkilotga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi, og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.*

*Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida yashovchi fuqarolardan* Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bo'linma hamda bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, og'zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan qaerga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi, murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy **593 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o'tkazdilar.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi**

**Matbuot xizmati**